
“Yilning eng namunali mahalla yetakchisi” tanlovining Respublika bosqichida ishtirok etgan Toshloq tumani “Tog‘liq” MFY yoshlar yetakchisi Muhammadov Azizbek Anvarjon o‘g‘lini tabriklaymiz.

Azizbek tashabbusi bilan “Tog‘liq” mahallasida 2022-yilda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish bo‘yicha “Yoshlar dasturi” ishlab chiqilidi, jami 86 mln so‘m mablag‘ sarf etildi.

Mahalla yoshlari bilan “Yoshlarning bo‘sh vaqti-yetakchining ish vaqti” tamoyili asosida ko‘chama-ko‘cha tadbir va loyihalar orqali jami 20 dan ziyod yangi loyihalarda 500 nafar yoshlar qamrab olindi. Kitobxonlik targ‘ib qilish yoshlarni kitobga bo‘lgan muhabbatini oshirish maqsadida shaxsiy avtomobilida “Sen kitobga bormasang kitob senga keladi” shiori ostida ko‘chma kutubxona tashkil etilgan. Hozirda 500 dan ziyod yangi kitoblar bo‘lib kitobxon yoshlar soni esa, 200 dan oshgan.

2023-04-18 16:36:42